

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMINI
O'RGATISH TEXNOLOGIYASI**

Navbahor Mirzahamidova

Namangan davlat universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida sifat so'z turkumini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, mustaqil fikr, ijodiy fikr, predmet belgisi, ta'limiy o'yin, noan'anaviy dars.

Annotation: This article discusses the importance of using interactive methods in teaching adjective vocabulary to elementary school students in their native language classes.

Keywords: modern education, independent thinking, creative thinking, subject marking, educational play, non-traditional lesson.

Аннотация: эта статья представляет собой разговор о важности использования интерактивных методов в обучении категории прилагательное слов в родных классах начальной школы.

Ключевые слова: Современное образование, самостоятельное мышление, творческое мышление, предметное оценивание, развивающая игра, нетрадиционные уроки.

O'zbekiston istiqlolga erishishi bilan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini qurish yo'lini tanlaganligi sababli, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar barcha sohalar qatorida ta'lim tizimi oldiga ham mazmun-mohiyati jihatidan butkul yangi vazifalarni qo'ydi. Bu vazifalarning amalga oshirilishi ta'lim tizimining muntazam takomillashtirib borilishini va shu orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishni taqozo etadi. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy kamolot sari etaklaydi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagog o'quvchilarini o'rgangan bilimlarini hayot bilan bog'lay olish ko'nikmasini rivojlantiradi. O'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina o'quvchilar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarni shakllantirish, qo'lga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq etishga intiladi. Darslarda interfaol usullardan samarali foydalanish natijasida o'quvchilarda

bilimlarga mustaqil erishish qobiliyati shakllanadi hamda mavzu bo'yicha turli g'oyalar topish, uni isbotlash orqali yangi aqliy harakat usullarini topish va bilimlarni bir muammodan boshqasiga ko'chirish ko'nikmasi hosil bo'ladi. O'quvchilarda diqqat va tasavvurlari rivojlanadi, o'quv materiallarini idrok qilish orqali ularning bilish faolligi oshadi

Sifatni o'rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar 1- va 2-sinfda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga qanday?, qanaqa? so'rog'ini berishga o'rganadilar; 3-sinfda sifat so'z turkumi sifatida o'rganiladi; 4-sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda qip-qizil, yam-yashil kabi orttirma darajadagi sifatlarning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi(rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter- xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun 1-sinfdan o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar. Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) yo'nalishda olib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda „Sifat“ mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi: 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-, 2-sinf); 2) sifat haqida tushuncha berish (3- sinf); 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o'zlashtirish (4-sinf). Sifat bilan (atamasiz) dastlabki tanishtirish (birinchi bosqich) sifatning leksik ma'nosi va so'roqlari ustida kuzatish o'tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo'lib, uni rangi, mazasi, shakli; xil-xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash talab etiladi.

O'quvchilar belgi bildirgan bunday so'zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarini tushirib qoldirib, so'ngra sifatlari bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko'rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, sujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi.

„Sifat“ tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning „predmet belgisi“ degan umumlashtirilgan kategoriyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda

rang, maza, shakl, hajm, xil-xususiyat bildiradigan so'zlar guruhlanadi va shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi.

O'quvchilarning sifatning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o'stirish uchun:

1. berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish: Qanday? shaftoli — Shirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday? kitob Qalin, qiziqarli kitob;
2. berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: Tikanli, kichkina, foydali ... (tipratikan). Ehtiyolkor, ayyor, yovvoyi ... (tulki);
3. predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini aytish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifat so'z turkumini boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'limiy o'yinlardan foydalangan holda o'rgatish dars samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga o'qituvchining vaqtini tejashiga, oz muddatda barcha o'quvchilarni o'zlashtirishini tekshirishga imkon beradi.

“U kim? Bu nima?” ta'limiy o'yini

Ta'limiy o'yinni o'tkazishdan maqsad: O'quvchilarning mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish ko'nikmalarini shakllantirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish.

Ta'limiy o'yinni o'tkazish jarayoni: Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi. Ta'riflash jarayonida, albatta, sifat so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlardan foydalanadi. O'quvchilar ta'rif asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

Masalan: U shar shaklida. Uni mashhur sportchilar ham, biz bolalar ham, kattalar ham sevib o'ynaymiz. Shuningdek, u yosh bolalarning sevimli o'yinchog'idir. (javob: koptok).

Uning rangi oq. Uni “oq oltin” deyishadi. Kuzda yig'ib olinadi. (javob: paxta)

Uning bo'yi eshikdan past, partadan baland, kengligi doskadan tor. (javob: shkaf)

O'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llarga dam berish maqsadida yoki tovushlar bilan tanishtirish, yangi mavzuni bayon qilish jarayonida foydalanish mumkin. O'yin o'quvchilarda ziyraklik, sinchikovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda o'qituvchilar o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun ta'lim jarayoniga zamonaviy yondosha olishi kerak. Boshlang'ich sinflar ona tili darslariga ham noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini

kamol toptirishda ona tili darslarining o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o‘z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko‘zlagan holda ish olib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Ashurov “ Ona tili va adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish” 2021-yil.
2. G‘afforova T Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.
3. Muslimov N. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.
4. Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2009.
5. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.
6. D.Sayfutdinova. “Boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalari”. Academic research in educational sciences volume 2 issue 9 2021..
7. Internet ma’lumotlari: [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. www.pedagog.uz